

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi hamda Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida yangi o'quv yili ochilish marosimi yuzasidan

PRESS-RELIZ

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida boks va gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 22-iyuldagi PF-94-son Farmoni ijrosi doirasida joriy yilning **27-28-29-30-avgust kunlari Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabi hamda Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabiga kirish imtihonlari o'tkazildi.** Xususan, **12-sentyabr kuni** mazkur sport maktablariga kirish imtihonlarining natijalari e'lon qilindi.

Shu munosabat bilan joriy yilning **16-sentyabr** sanasi **soat 09:00da** Toshkent shahrida joylashgan **Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabida** hamda **soat 11:00da Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida** yangi o'quv yilining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ma'lumot o'rnida, mazkur sport maktablarining **qabul tartibi**, takomillashtirilgan **o'quv rejalari, shtatlar jadvali** ishlab chiqildi hamda **Boks maktabining 5-6 va 9-10-sinflariga, Gimnastika maktabining 1-8-sinflariga** qabul kvotalari belgilandi.

Joriy yilning **7-25-avgust** kunlari sport maktablariga **2024-2025-o'quv yili** uchun o'quvchilarning **hujjatlarini qabul qilish** jarayoni amalga oshirildi.

Ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida hujjatlarni qabul qilish onlayn shaklda **ariza.piima.uz** sayti orqali amalga oshirildi. Hujjatlar qabuli yakuniga ko'ra kelib tushgan jami arizalar soni **1 644 tani** tashkil etdi, shundan:

Boks maktabi uchun kelib tushgan arizalar soni **1 245 ta;**

Gimnastika maktabiga **399 ta.**

Ushbu sport maktablariga kirish imtihonlari **ikki bosqichda** tashkil etildi:

Birinchi bosqich imtihonlari **27-28-29-avgust kunlari** o'tkazildi. Unda talabgorlar umumiy hamda jismoniy tayyorgarlik bo'yicha sinovdan o'tishdi.

Ikkinchi bosqich imtihonlari **30-avgust kuni o'tkazildi.** Unda talabgorlar psixologik va intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo'yicha test sinovlaridan o'tdi.

Ma'lumot o'rnida, mazkur sport maktablariga 2024/2025-o'quv yili uchun kirish imtihonlaridan o'tgan jami **170 nafar o'quvchi qabul qilindi.** Xususan, Bahodir Jalolov nomidagi boksga ixtisoslashtirilgan sport maktabiga **96 nafar o'quvchi,** Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabiga **74 nafar o'quvchi** qabul qilindi.

Axborot xizmati
(99 875 03 12)